Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni strategik tartibga solish usullarining o'ziga xos jihatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida hududiy rivojlanishdagi differensial yondashuv, davriy monitoring va ko'p vositali boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati asoslandi. Shuningdek, Direktiv-Bilvosita-Normativ-Indikativ (D-B-N-I) tipologiyasi ishlab chiqilib, uning funksional xususiyatlari va amaliy qo'llash imkoniyatlari baholandi. Tadqiqotda AHP metodologiyasi, qiyosiy tahlil va statistik yondashuvlardan foydalanildi. O'zbekiston hududlari misolida strategik tartibga solish vositalarining institutsional va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi. Hududiy rivojlanish siyosatini differensial tashkil etish, resurslarni maqsadli taqsimlash hamda monitoring tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, strategik tartibga solish, D-B-N-I tipologiyasi, institutsional yondashuv, differensial boshqaruv, AHP metodologiyasi, hududiy siyosat, monitoring tizimi.

Abstract. This study analyzed the specific features of strategic regulation methods for regional socio-economic development. The research justified the importance of differentiated approaches, continuous monitoring, and multi-instrument management mechanisms in regional development policy. A Directive–Indirect–Normative–Indicative (D-B-N-I) typology was developed, and its functional characteristics and practical application opportunities were evaluated. The study applied AHP methodology, comparative analysis, and statistical approaches. Using the example of Uzbekistan's regions, the institutional and economic effectiveness of strategic regulation instruments was examined. As a result, scientific and practical recommendations were formulated for differentiated regional policy implementation, targeted resource allocation, and improvement of socio-economic monitoring systems.

Key words: regional development, strategic regulation, D-B-N-I typology, institutional approach, differentiated management, AHP methodology, regional policy, monitoring system.

Аннотация. В данном исследовании научно проанализированы особенности методов стратегического регулирования регионального социально-экономического развития. В ходе исследования обоснована значимость дифференцированного подхода, системного мониторинга и многокомпонентных механизмов управления региональным развитием. Разработана типология «Директивные–Косвенные–Нормативные–Индикативные» (D-B-N-I), а также оценены её функциональные характеристики и возможности практического применения. В исследовании использованы методология АHP, сравнительный анализ и статистические методы. На примере регионов Узбекистана проанализирована институциональная и экономическая эффективность инструментов стратегического регулирования. В результате сформированы научно-практические рекомендации по дифференцированной организации региональной политики, целевому распределению ресурсов и совершенствованию системы мониторинга социально-экономического развития.

Ключевые слова: региональное развитие, стратегическое регулирование, типология D-B-N-I, институциональный подход, дифференцированное управление, методология АHP, региональная политика, система мониторинга.

KIRISH

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi tafovutlar barcha mamlakatlar, jumladan, rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega davlatlar oldida turgan markaziy iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biridir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 2023-yilgi “Regional Outlook: The Longstanding Geography of Inequalities” hisobotiga ko'ra, a'zo mamlakatlar mintaqalarining taxminan 80 foizi Barqaror rivojlanish maqsadlarining birovtasi bo'yicha ham 2030-yilgacha to'liq natijaga erishmasligi prognoz qilinadi [1]. Bu prognoz hududiy



tafovutlar o'z-o'zidan kamaymasligini, balki maqsadli, ilmiy asoslangan va uzoq muddatli aralashuvni talab qilishini ochiq ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son¹ Farmoni bilan qayta tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar — iqtisodiyot hajmini ikki barobar oshirish, "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish va kambag'allik darajasini 7 foizgacha qisqartirish — kontekstida hududiy mutanosib rivojlanishni ta'minlash markaziy ahamiyat kasb etadi [2]. 14 ta hududiy birlik (12 viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri) o'rtasidagi sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy farqlar — daromad, ta'lim, sog'liq, infratuzilma va boshqa o'lchamlardagi tafovutlar — strategik tartibga solishning differensial yondashuvini taqozo qiladi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda strategik tartibga solish vositalarining tizimli tasnifi sezilarli darajada parchalangan holatda. Klassik nazariy asarlar — J. Tinbergenning iqtisodiy siyosat nazariyasi, R.A. Musgravening davlat moliyasi nazariyasi, R. Lucasning ekonometrik siyosatni baholashga oid tanqidi — har biri o'z nuqtayi nazaridan qaror vositalarining muayyan jihatlarini yoritadi, biroq mazkur yondashuvlarni hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish kontekstida birlashtiruvchi yagona taksonomiya bugungi kunda ishlab chiqilmagan. D. Acemoglu va J.A. Robinsonning institutsional yondashuvi hamda T.L. Saatining iyerarxik analiz metodi qaror qabul qilish jarayoniga kuchli metodologik asos beradi, biroq bu vositalar hududiy strategik tartibga solishning yagona ramkasi sifatida hozirgacha integratsiyalanmagan.

Mazkur bo'shliqni to'ldirish maqolaning asosiy maqsadini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni strategik tartibga solish usullarining o'ziga xos jihatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning sistematik klassifikatsiyasini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J. Tinbergenning "Iqtisodiy siyosat nazariyasiga oid" [3] va undan keyingi "Iqtisodiy siyosat: tamoyillar va dizayn" [4] asarlarida har bir mustaqil siyosat maqsadi uchun unga muvofiq alohida vosita zarurligi matematik jihatdan asoslangan. "Bir maqsad — bir vosita" qoidasi sifatida tanilgan ushbu prinsip hududiy tabaqalashuvning ko'p o'lchovli tabiatini boshqarish uchun differensial vositalar majmuining zaruriyatini ko'rsatadi: agar hududlararo tafovutlar bir vaqtning o'zida daromad, ta'lim, sog'liq, infratuzilma va institutsional jihatlardan namoyon bo'layotgan bo'lsa, ularning har biri uchun maxsus vosita talab etiladi. Aynan shu mantiq hududiy tartibga solishning bir necha funksional turlarga ajratilishini matematik jihatdan asoslab beradi.

R.A. Musgravening "Davlat moliyasi nazariyasi" [5] asarida davlat aralashuvining uch funksiyasi — taqsimlash (allocation), qayta taqsimlash (distribution) va barqarorlashtirish (stabilization) — sistematik tarzda ajratilgan. Mazkur uch funktsiya hududiy tartibga solishning aniq vositalari bilan bevosita bog'lanadi: qayta taqsimlash funktsiyasi subsidiyalar, ijtimoiy yordam va adresli to'lovlar orqali, taqsimlash funktsiyasi infratuzilma, kapital qo'yilmalar va davlat-xususiy sherikligi orqali, barqarorlashtirish funktsiyasi esa qonunchilik, standartlar va institutsional ramkalar orqali bajariladi. Musgrave yondashuvi Tinbergen prinsipini funksional kontekstda boyitib, har bir funktsiyaga muvofiq vositalar majmuini aniqlaydi.

R. Lucasning "Ekonometrik siyosat baholashga tanqid" [6] asarida iqtisodiy aktorlarning siyosat o'zgarishlariga moslashuv qobiliyati ehtimoli tahlil qilingan. "Lucas tanqidi" deb nomlanuvchi prinsipga muvofiq, qarorlarning samaradorligi nafaqat ularning maqsadga muvofiqligiga, balki iqtisodiy aktorlarning ushbu qarorlarni qanday qabul qilishi va ularga moslashuv tezligiga ham bog'liqdir. Bu mantiq qaror turlarining vaqt gorizontali bo'yicha differentsiatsiyasini asoslab beradi: tezkor (Direktiv) qarorlar darhol natija beradi, biroq qisqa muddatli; uzoq muddatli (Indikativ) qarorlar sekin, lekin barqaror ta'sir ko'rsatadi.

D. Acemoglu va J.A. Robinsonning "Nima uchun millatlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi" [7] hamda "Tor yo'lak" [8] asarlarida hududlar va davlatlar o'rtasidagi farqlarning chuqur manbai inklyuziv institutlar sifati, qonun ustuvorligi va boshqaruv samaradorligi ekanligi asoslangan. Acemoglu–Robinson yondashuviga ko'ra, qaror turlarining maqbul aralashmasi institutsional kontekstga bog'liq: zaif institutlarga ega hududlarda davlatning bevosita aralashuvi (Direktiv qarorlar) ulushi yuqori bo'lishi, kuchli institutlar mavjud hududlarda esa rag'batlantiruvchi va koordinatsion vositalar (Indikativ qarorlar) ustunligi maqsadga muvofiq. Bu prinsip hududiy tartibga solishda qaror aralashmasini institutsional yetuklik darajasiga muvofiq tabaqalashtirishni nazariy jihatdan asoslab beradi.

A. Pike, A. Rodriguez-Pose va J. Tomaneyning "Mahalliy va hududiy rivojlanish" [9] asarida hududiy strategik tartibga solishning uchta asosiy xususiyati ajratib ko'rsatilgan: differensial xarakter (har hudud uchun individual yondashuv), davriy va izchil xarakter (muntazam monitoring asosida adaptiv strategiya) hamda ko'p

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>



vositali xarakter (Tinbergen prinsipiga muvofiq har tabaqalashuv kanali uchun mos vosita). F. Barca, P. McCann va A. Rodriguez-Posening “Hududiy rivojlanishga aralashuv asosi: joyga asoslangan va joydan mustaqil yondashuvlar” [10] asarida hududiy siyosatning “joyga asoslangan” (place-based) yondashuvi nazariy jihatdan asoslangan bo‘lib, har hududning o‘ziga xos kontekstini, resurs salohiyatini va ijtimoiy-iqtisodiy dinamikasini hisobga olishni majburiy shart sifatida belgilaydi.

J. Stiglitz, A. Sen va J.-P. Fitoussi tomonidan ishlab chiqilgan “Iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ijtimoiy taraqqiyotni o‘lchash bo‘yicha komissiya” hisoboti [11] zamonaviy strategik siyosat nafaqat YIM kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga, balki turmush sifati, ijtimoiy aloqalar, kelajak avlodlar manfaatlar va ekologik barqarorlik kabi ko‘p o‘lchovli mezonlarga asoslangan diagnostikadan kelib chiqishi kerakligini ta’kidlagan. Sen tomonidan “Tovarlar va imkoniyatlar” [12] asarida ishlab chiqilgan imkoniyatlar yondashuvi (capability approach) inson farovonligini bir o‘lchovli daromad emas, balki ko‘p o‘lchovli imkoniyatlar majmui sifatida tushunish kerakligini asoslab bergan.

S. Alkire va J. Fosterning “Hisoblash va ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni o‘lchash” [13] asarida ko‘p o‘lchovli mahrumlik indeksining (Multidimensional Poverty Index, MPI) metodologik asoslari taqdim etilgan. Alkire–Foster mantig‘iga muvofiq, kompozit (integral) indeksning haqiqiy strategik qiymati uning komponentlarga ajratish (decomposition) qobiliyatida — har bir hududning umumiy ballidan tashqari, qaysi yo‘nalish bo‘yicha aniq kamchiliklar mavjudligini aniqlash imkoniyatidadir. Bu prinsip kompozit indeksni qaror qabul qilish jarayoniga bevosita aylantirish texnologiyasini ta’minlaydi va D-B-N-I tipologiyasining diagnostik bog‘lanish mantig‘ini asoslaydi. OECD va Yevropa Ittifoqining Qo‘shma tadqiqot markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Kompozit indekslar qurish bo‘yicha qo‘llanma” [14] esa kompozit indeksni qurishning o‘n bosqichli metodologiyasini xalqaro standart sifatida mustahkamlagan.

T.L. Saatining “Iyerarxik analiz jarayoni” [15] asarida ko‘p mezonli qaror qabul qilish jarayonida har bir muqobil yechimning vazn ulushini juftlik solishtirish (pairwise comparison) orqali hisoblash imkoniyati ishlab chiqilgan. AHP metodologiyasi keyinchalik xususiyatlari turlicha bo‘lgan vositalar majmuasini sistematik tarzda baholash va tartiblash uchun standart ilmiy vositaga aylangan. E.J. Mishan va E. Quahning “Xarajat-foйда tahlili” [16] yondashuvi har bir qaror turining iqtisodiy samaradorligi va budjet tahlilini hisobga olishni talab qiladi. Mishan–Quah yondashuviga ko‘ra, Direktiv qarorlar yuqori budjet xarajatlari va past institutsional talablarni nazarda tutadi, Indikativ qarorlar esa aksincha — past budjet xarajatlari va yuqori institutsional talablar bilan tavsiflanadi. Aynan shu xarajat-foйда nisbati hududning klaster guruhi (institutsional yetukligi va budjet imkoniyatlari) bo‘yicha qaror aralashmasining moslashuv mantig‘ini asoslab beradi.

Yuqorida bayon etilgan to‘rt nazariy yo‘nalish — iqtisodiy siyosatning klassik nazariyasi, institutsional iqtisodiyot, imkoniyatlar yondashuvi va ko‘p mezonli qaror qabul qilish metodologiyasi — har biri o‘z muhim hissasini qo‘shgan, biroq mavjud adabiyotlarda ushbu yondashuvlarni hududiy strategik tartibga solishning yagona taksonomik ramkasida birlashtiruvchi tadqiqot mavjud emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uch bosqichli metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Birinchi bosqichda hududiy strategik tartibga solishning asosiy xususiyatlari — differensiallik, bosqichma-bosqich rivojlanish va ko‘p vositali boshqaruv mexanizmlari — ilmiy adabiyotlar tahlili hamda qiyosiy tahlil usullari yordamida tizimlashtirildi. Ushbu bosqich hududlar rivojlanishidagi tafovutlarni tartibga solishda qo‘llaniladigan nazariy yondashuvlarni aniqlashga xizmat qildi.

Ikkinchi bosqichda Direktiv-Bilvosita-Normativ-Indikativ tipologiyasi (D-B-N-I modeli) sintez usuli asosida shakllantirildi. Bunda hududiy rivojlanishni tartibga solishga oid to‘rtta klassik nazariy paradigma yagona tizimga birlashtirildi hamda har bir boshqaruv qarori sakkizta asosiy mezon bo‘yicha tasniflandi. Ushbu yondashuv hududiy siyosat vositalarini tizimli ravishda guruhlash va ularning amaliy qo‘llanish chegaralarini aniqlash imkonini berdi.

Uchinchi bosqichda ishlab chiqilgan tipologiya Analitik Iyerarxiya Jarayoni (AHP) metodologiyasi asosida miqdoriy shaklga keltirildi. Shu asosda klaster va tendensiya bo‘yicha kalibrlash koeffitsiyentlari hisoblandi hamda model O‘zbekiston Respublikasining 14 hududi misolida empirik jihatdan tekshirildi.

Tadqiqotning matematik va ekonometrik asosini quyidagi model tashkil etadi. D-B-N-I tipologiyasi har bir hudud va har bir hududiy tabaqalashuv yo‘nalishi uchun to‘rtta qaror turining yakuniy ulushini hisoblaydi:

$$w_{d,j}^{(r)} = \frac{w_{d,j}^{base} \times \kappa_d^{K(r)} \times \tau_d^{T(r)}}{Z_j^{(r)}}$$



bu yerda:

- $d \in \{D, B, N, I\}$ - qaror turi:
 - D - Direktiv,
 - B - Bilvosita,
 - N - Normativ,
 - I - Indikativ;
- j - hududiy tabaqalashuv yo'nalishi;
- r - hudud;
- $K(r)$ - hududning klaster guruhi;
- $T(r)$ - hududning rivojlanish tendensiyasi turi;
- $w_{d,j}^{base}$ - AHP usuli asosida aniqlangan bazaviy ulush koeffitsiyenti;
- $\kappa_d^{K(r)}$ - klaster bo'yicha kalibrlash koeffitsiyenti;
- $\tau_d^{T(r)}$ - tendensiya bo'yicha kalibrlash koeffitsiyenti;
- $Z_j^{(r)}$ - normalizatsiya koeffitsiyenti.

Normalizatsiya koeffitsiyenti barcha ulushlar yig'indisini 1 ga tenglashtirish uchun quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$Z_j^{(r)} = \sum_{d \in \{D, B, N, I\}} \left(w_{d,j}^{base} \times \kappa_d^{K(r)} \times \tau_d^{T(r)} \right)$$

Empirik tahlil uchun ma'lumotlar bazasi sifatida 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining 14 hududi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar ishlatildi. Asosiy manbalar sifatida stat.uz, andstat.uz portallari, vazirliklar va mahalliy hokimliklar hisobotlaridan foydalanildi.

Hududlarni klasterlarga ajratish 2024-yil uchun hisoblangan kompozit indeks natijalari hamda kvartil chegaralari asosida amalga oshirildi. Xususan:

- Q25 dan past hududlar — past rivojlangan klaster;
- Q25–Q75 oralig'i — o'rta rivojlangan klaster;
- Q75 dan yuqori hududlar — yuqori rivojlangan klaster sifatida guruhlandi.

Hududlarning rivojlanish tendensiyasi esa 2010–2024-yillardagi o'rtacha yillik o'sish sur'ati asosida baholandi. O'sish sur'ati 1,0 punkt/yildan yuqori bo'lgan hududlar ijobiy tendensiyaga ega, undan past hududlar esa sust rivojlanayotgan hududlar sifatida tasniflandi.

Bazaviy 12×4 indikator-qaror moslik matritsasini shakllantirishda Saatining Analitik Iyerarxiya Jarayoni metodidan foydalanildi. Har bir hududiy yo'nalish bo'yicha to'rtta qaror turining nisbiy ahamiyati ekspert baholari va xalqaro ilmiy adabiyotlar tavsiyalari asosida aniqlashtirildi.

Modelning ichki mantiqiy izchilligini tekshirish maqsadida Saatining moslik nisbati (Consistency Ratio — CR) hisoblandi. Barcha juftlik solishtirish matritsalarida:

$$CR < 0,10$$

sharti bajarilgani aniqlandi. Bu esa ekspert baholari va hisob-kitoblarning metodologik jihatdan ishonchli hamda ichki mantiqan izchil ekanligini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy iqtisodiyot adabiyotidagi klassik asarlar tahlili strategik tartibga solishning uchta asosiy o'ziga xos jihatini ajratish imkonini beradi. Mazkur uch jihat har biri alohida tabiatga ega bo'lib, birgalikda hududiy strategik tartibga solishning farqli xususiyatlarini va boshqa siyosat turlaridan farqini belgilaydi.

Differensial xarakter — hududiy strategik tartibga solishning birinchi asosiy o'ziga xos jihati hisoblanadi. Pike, Rodriguez-Pose va Tomaney [9] hamda Barca, McCann va Rodriguez-Pose [10] asarlarida asoslanganidek, har bir hudud o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy holat, resurs salohiyati va rivojlanish trayektoriyasiga ega bo'lgani uchun yagona universal yondashuv samarasiz hisoblanadi. Toshkent shahri va Sirdaryo viloyati uchun bir xil



strategik retsept qo'llash — birinchi misolda samarasiz, ikkinchi misolda yetarsiz — natijaga olib keladi. Bu jihat hududiy strategik tartibga solishning makroiqtisodiy yoki sektor siyosatidan tubdan farqini belgilaydi: agar makroiqtisodiy siyosat butun mamlakat uchun yagona qaror qabul qilsa, hududiy siyosat har bir hudud uchun maxsus qaror konfiguratsiyasini talab qiladi.

Davriy va izchil xarakter — ikkinchi asosiy o'ziga xos jihat. Hududiy nomutanosiblik bir martalik aralashuv natijasida bartaraf etilmaydi, balki uzoq muddatli, muntazam monitoring asosida moslashuvchan strategiyalarni qo'llashni talab qiladi. Lucas tanqidiga muvofiq [6], iqtisodiy aktorlar siyosat o'zgarishlariga moslashadi va bu moslashuv siyosat samaradorligini o'zgartirib yuboradi. Shu sababli strategik tartibga solish nafaqat aniq vaqt nuqtasidagi qaror, balki vaqt davomida moslashtiriladigan adaptiv siyosat sikli sifatida tashkillashtirilishi kerak. Bu jihat doimiy monitoring tizimining markaziy g'oyasini va kompozit indekslar (HITHI/ITI)ning yillik qayta hisoblanish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Ko'p vositali xarakter — uchinchi asosiy o'ziga xos jihat. Tinbergen prinsipiga muvofiq [3; 4], hududiy tabaqalashuvning har bir kanali (daromad, ta'lim, sog'liq, infratuzilma, institutsional sifat va boshqalar) uchun mos vosita qo'llanilishi kerak. Bu prinsip yagona aralashuvning samarasizligini va ko'p vositali aralashma zaruriyatini matematik jihatdan asoslaydi. Aynan shu prinsip D-B-N-I tipologiyasining markaziy mantig'ini tashkil etadi: hududiy strategik tartibga solishda hech qanday yagona qaror turi (faqat Direktiv yoki faqat Bilvosita) ko'p o'lchovli muammoni samarali bartaraf eta olmaydi, biroq to'rt qaror turining maqbul aralashmasi har bir klasterning o'ziga xos sharoitiga moslashtirilgan tarzda yuqori samara beradi.

Yuqorida ajratilgan uch jihat — differensial, davriy-izchil va ko'p vositali xarakter — birgalikda hududiy strategik tartibga solishning sistematik klassifikatsiyasiga zaruratni keltirib chiqaradi. Birinchi jihat hududiy o'ziga xoslikni hisobga oluvchi vositalarni, ikkinchi jihat vaqt gorizonti bo'yicha differensiyalashgan vositalarni, uchinchi jihat esa funksional jihatdan ajratilgan vositalar majmuini talab qiladi. Aynan shu uch talabga to'liq javob beruvchi yangi taksonomiya — D-B-N-I tipologiyasi — ushbu maqolaning markaziy ilmiy hissasini tashkil etadi.

Mazkur tadqiqotda taklif etilayotgan Direktiv-Bilvosita-Normativ-Indikativ (D-B-N-I) tipologiyasi hududiy strategik tartibga solishning to'rt asosiy turini ajratadi. Tipologiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, u nafaqat alohida vositalarni tartibga keltiradi, balki ularning o'zaro funksional bog'lanishini, ta'sir kuchini, vaqt gorizonti va boshqaruv mexanizmlarini sistematik tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Quyida har bir qaror turining funksional xususiyatlari batafsil bayon etiladi.

Direktiv qarorlar (D) — davlatning bevosita majburiy aralashuvini nazarda tutadigan vositalar majmui bo'lib, asosiy vazifasi kritik chegaradagi tabaqalashuv ko'rinishlarini (kambag'allik, ijtimoiy mahrumlik) tezkor bartaraf etishdir. Direktiv qarorlar ijtimoiy ta'minotning maqsadli subsidiyalarini, kambag'al oilalarga adresli moliyaviy yordamni, qayta taqsimlash transfertlarini va boshqa Musgravening qayta taqsimlash funksiyasiga kiruvchi mexanizmlarni o'z ichiga oladi [5]. Mazkur qarorlarning samaradorligi natijalarning belgilangan vazifalarga muvofiqligi orqali o'lchanadi va Stiglitzning ijtimoiy adolat mezonlariga muvofiq baholanadi. Direktiv qarorlarning kuchli tomoni — tezkor ta'sir va aniq ko'rinarli natija; zaif tomoni esa budget xarajatlarining yuqoriligi va davriy moliyalashtirishga qaramlikdir. Aynan shu sababli Direktiv qarorlar institutsional yetukligi past hududlarda (K4 strategik diqqat zonasi) ustuvor bo'lib, ularning aralashmadagi ulushi 50 foizgacha yetishi mumkin.

Bilvosita qarorlar (B) — davlat tomonidan iqtisodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadigan vositalar majmui bo'lib, asosiy vazifasi infratuzilma va kapital qo'yilmalar orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Bilvosita qarorlar uy-joy qurilishi hajmlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI), kapital qo'yilmalar, infratuzilma loyihalari va davlat-xususiy sherikligi (PPP) loyihalari kabi vositalarni qamrab oladi. Bunday qarorlar kumulyativ sikl orqali hududning iqtisodiy salohiyatini oshiradi va periferiya hududlarining markazlashish jarayoniga jalb qilinishini ta'minlaydi. Bilvosita qarorlarning kuchli tomoni — uzoq muddatli barqaror ta'sir va xususiy sektorni jalb qilish; zaif tomoni esa natijaning sekinligi va ekzogen iqtisodiy sharoitlarga bog'liqligidir. Bilvosita qarorlar past-o'rta va o'rta darajadagi hududlarda infratuzilmaviy bo'shliqlarni to'ldirish uchun strategik ahamiyatga ega.

Normativ qarorlar (N) — qonunchilik va standartlar orqali bozor aktorlari xulq-atvorini tartibga soluvchi vositalar majmui bo'lib, asosiy vazifasi mehnat bozori, ta'lim va sog'liq xizmatlarining majburiy minimal sifat va qamrov standartlarini ta'minlashdir. Normativ qarorlar minimal ish haqi, mehnat shartlari standartlari, ta'lim sifati bo'yicha davlat talablari, tibbiyot xizmati hududiy kafolatlari, eksport-import me'yoriy hujjatlari va sertifikatlash kabi vositalarni o'z ichiga oladi. Mazkur qarorlar Tinbergenning sifatli vositalariga [4] va Musgravening barqarorlashtirish funksiyasiga [5] muvofiq amal qiladi. Normativ qarorlarning kuchli tomoni — universal qamrov va barqaror institutsional ta'sir; zaif tomoni esa qo'llash mexanizmlarining hududlar bo'yicha notekisligidir. Normativ qarorlar ayniqsa kafolat tabiatidagi yo'nalishlar — mehnat, ta'lim, sog'liq — bo'yicha ustuvor bo'lib, o'rta darajadagi hududlarda muhim rol o'ynaydi.

Indikativ qarorlar (I) — yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi vositalar majmui bo'lib, davlatning bevosita aralashuvsiz iqtisodiy aktorlarni belgilangan strategik maqsadlar tomon yo'naltiradi. Indikativ qarorlar maqsadli



ko'rsatkichlarni belgilaydi, biroq ularga erishish uchun majburiy mexanizmlardan emas, balki axborotni ochiqlashtirish, koordinatsiya platformalari va rag'batlantirishlardan foydalanadi. Hududiy tartibga solish kontekstida Indikativ qarorlar yalpi hududiy mahsulot dinamikasi, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, raqamli iqtisodiyot indikatorlari, innovatsion sektorning rivojlanishi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha hududlarni reyting asosida baholash, eng yaxshi amaliyotlarni tarqatish va strategik koordinatsiya orqali amalga oshiriladi. Indikativ qarorlarning kuchli tomoni — past budget xarajatlari, o'zini o'zi takomillashtirish va uzoq muddatli barqaror o'sish; zaif tomoni esa sezilarli natija olish uchun uzoq vaqt talab etishi va boshqaruv institutlarining kuchli bo'lishini taqozo qilishidir. Aynan shuning uchun Indikativ qarorlar institutsional yetukligi yuqori (K1 yetakchi klaster) hududlarda ustuvor bo'lib, ularning aralashmadagi ulushi 50 foizga yetishi mumkin.

To'rt qaror turining funksional xususiyatlari, ta'sir mexanizmlari, vaqt gorizonti, samaradorlik mezonlari, budget talabi, institutsional sharti va ustuvor qo'llanish sohalari sakkiz o'lchovli profil bo'yicha 1-jadvalda sistematiik shaklda umumlashtirilgan. Mazkur jadval D-B-N-I tipologiyasining sistematiik xususiyatini taqdim etadi va har bir qaror turining mustaqil profilini hamda boshqa turlardan farqlanish jihatlarini bir nazarda taqqoslash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Hududiy strategik tartibga solish qaror turlarining tizimli tasnifi²

Belgi	Qaror turi	Funksional vazifa va asosiy vositalar	Vaqt gorizonti va ta'sir mexanizmi	Budget talabi va institutsional shart
D	Direktiv	Kritik tabaqalashuvni tezkor bartaraf etish; qayta taqsimlash. Subsidiyalar; adresli ijtimoiy yordam; «Kambag'allikdan farovonlik sari» dasturi; transfertlar.	Qisqa muddatli (1-2 yil); tezkor ta'sir. Davlat budgetining bevosita aralashuvi; majburiy ijro; markaziy boshqaruv.	Yuqori budget xarajatlari; past institutsional talab. Kambag'allik koeffitsiyenti, adresli yordam qamrovi.
B	Bilvosita	Iqtisodiy resurs ta'minoti; uzoq muddatli o'sish. Kapital qo'yilmalar; FDI jalb qilish; uy-joy qurilishi; davlat-xususiy sherikligi (PPP).	O'rta-uzoq muddatli (3-10 yil); kumulyativ ta'sir. Iqtisodiy rag'batlar; bozor signallarini kuchaytirish; xususiy sektorni jalb qilish.	O'rta budget xarajatlari; o'rta institutsional talab. Investitsiya hajmi va FDI dinamikasi.
N	Normativ	Bozor aktorlari xulq-atvorini standartlashtirish; minimal sifat kafolatlari. Minimal ish haqi; mehnat va ta'lim standartlari; tibbiyot kafolatlari; sertifikatlash.	O'rta muddatli (2-5 yil); barqaror institutsional ta'sir. Qonunchilik va standartlar; ijro nazorati; institutsional bosim.	Past-o'rta budget xarajatlari; o'rta-yuqori institutsional talab. Standartlarning hududiy bajarilish darajasi.
I	Indikativ	Iqtisodiy samaradorlikni oshirish; strategik koordinatsiya. Reyting baholash; eng yaxshi amaliyotlar; rag'batlantirish; innovatsion klasterlar.	Uzoq muddatli (5-15 yil); sekin, lekin barqaror ta'sir. Axborot va koordinatsiya; xulq-atvor signallari; raqobat motivatsiyasi.	Past budget xarajatlari; yuqori institutsional talab. YIM, YHM, innovatsiya ko'rsatkichlari.

1-jadvalda taqdim etilgan to'rt qaror turining sakkiz o'lchovli sistematiik tasnifi D-B-N-I tipologiyasining metodologik kuchini ta'minlovchi asosiy element hisoblanadi. Tasnifning asosiy ilmiy hissasi shundaki, har bir qaror turi nafaqat o'zining funksional vazifasi va vositalari bilan, balki vaqt gorizonti, ta'sir mexanizmi, budget talabi, institutsional sharti va ustuvor qo'llanish sohasi bo'yicha ham aniq differensiallangan. Bu sistematiik differensiatsiya keyingi qismda batafsil ko'rib chiqiladigan tipologiyaning to'rt asosiy tizimli xususiyatini — ta'sir kuchining gradiyentligi, vaqt gorizontining kuchaymalik xususiyati, budget samaradorligi va institutsional talablar o'rtasidagi teskari nisbat hamda monitoring va baholash usullarining farqlanishi — ilmiy jihatdan asoslab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni strategik tartibga solish usullarining o'ziga xos jihatlari sistematiik ravishda tahlil qilindi va ushbu jihatlariga to'liq javob beruvchi yangi taksonomiya — Direktiv-Bilvosita-Normativ-Indikativ (D-B-N-I) tipologiyasi — taklif etildi. Olingan natijalar quyidagi to'rt asosiy xulosani shakllantirish imkonini beradi.

Birinchidan, hududiy strategik tartibga solishning uch o'ziga xos jihati — differensial xarakter, davriy-izchil xarakter va ko'p vositali xarakter — ilmiy adabiyotlarda alohida-alohida tahlil qilingan bo'lsa-da, ularni birgalikda hisobga oluvchi taksonomiya bugungacha mavjud emas edi. Tadqiqotda ushbu uch jihatga to'liq javob beruvchi sistematiik klassifikatsiya zarurligi asoslandi: differensial xarakter hududiy o'ziga xoslikni hisobga oluvchi

² Manba: J. Tinbergen [3; 4], R.A. Musgrave [5], D. Acemoglu va J.A. Robinson [7; 8], T.L. Saaty [15] hamda E.J. Mishan va E. Quah [16] yondashuvlarining tahlil qilish asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



vositalarni, davriy-izchil xarakter vaqt gorizonti bo'yicha differensiyalashgan vositalarni, ko'p vositali xarakter esa funksional jihatdan ajratilgan vositalar majmuini talab qiladi. Bu uch talab D-B-N-I tipologiyasining markaziy mantig'ini shakllantiradi.

Ikkinchidan, taklif etilgan D-B-N-I tipologiyasi to'rt klassik nazariy paradigma sintezi sifatida shakllantirildi: J. Tinbergenning "bir maqsad — bir vosita" prinsipi to'rt qaror turining funksional differensiyasini, R.A. Musgravening uch funksiyali nazariyasi har bir turning iqtisodiy mexanizmini, D. Acemoglu va J.A. Robinsonning institutsional yondashuvi klaster-spetsifik kalibrlash mantig'ini, T.L. Saatining iyerarxik analiz metodi (AHP) esa miqdoriy formalizatsiya texnologiyasini ta'minlaydi. Mazkur sintez xalqaro adabiyotlarda hozirgacha sistematik tarzda amalga oshirilmagan va aynan shu integratsiya tipologiyaning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Uchinchidan, har bir qaror turi sakkiz o'lchovli profil bo'yicha — funksional vazifa, vositalar, vaqt gorizonti, ta'sir mexanizmi, samaradorlik mezon, budjet talabi, institutsional shart va ustuvor qo'llanish sohasi — sistematik tasniflandi (1-jadval). Tipologiya to'rt tizimli xususiyatga ega: ta'sir kuchining gradiyentligi (D-I), vaqt gorizontining kuchaymalik xususiyati, budjet xarajatlari va institutsional talab o'rtasidagi teskari nisbat hamda monitoring usullarining differensiyasini. Bu xususiyatlar tipologiyaning operatsion qo'llanishini ta'minlaydi va uni nafaqat klassifikatsiyaviy, balki amaliy strategik vosita sifatida foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, taklif etilgan D-B-N-I tipologiyasi "O'zbekiston–2030" strategiyasida belgilangan hududiy mutanosib rivojlanish vazifalarini aniq amaliy qarorlarga aylantirish uchun matematik asoslangan vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuv O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror loyihalarini ishlab chiqishda, Moliya vazirligining hududiy budjet rejalari, Iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining hududiy rivojlanish dasturlari hamda mahalliy hokimliklarning amaliy ish rejalari ilmiy asosda shakllantirishda qo'llanishi mumkin. Tipologiyaning yillik qayta hisoblanishi hududiy siyosatni o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish imkonini beradi hamda doimiy monitoring va baholash tizimini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. OECD Regional Outlook 2023: The Longstanding Geography of Inequalities. - Paris: OECD Publishing, 2023. - 320 p. - DOI: <https://doi.org/10.1787/92c0ef10-en>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
3. Tinbergen J. On the Theory of Economic Policy. - Amsterdam: North-Holland Publishing Co., 1952. - 78 p.
4. Tinbergen J. Economic Policy: Principles and Design. - Amsterdam: North-Holland Publishing Co., 1956. - 332 p.
5. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. - New York: McGraw-Hill, 1959. - 628 p.
6. Lucas R.E. Econometric Policy Evaluation: A Critique // Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy. - 1976. - Vol. 1. - Pp. 19-46. - DOI: [https://doi.org/10.1016/S0167-2231\(76\)80003-6](https://doi.org/10.1016/S0167-2231(76)80003-6).
7. Acemoglu D., Robinson J.A. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. - New York: Crown Business, 2012. - 544 p.
8. Acemoglu D., Robinson J.A. The Narrow Corridor: States, Societies, and the Fate of Liberty. - New York: Penguin Press, 2019. - 576 p.
9. Pike A., Rodríguez-Pose A., Tomaney J. Local and Regional Development. - London: Routledge, 2006. - 320 p.
10. Barca F., McCann P., Rodríguez-Pose A. The Case for Regional Development Intervention: Place-Based versus Place-Neutral Approaches // Journal of Regional Science. - 2012. - Vol. 52, No. 1. - Pp. 134-152. - DOI: <https://doi.org/10.1111/j.1467-9787.2011.00756.x>.
11. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. - 1991. - Vol. 99, No. 3. - Pp. 483-499. - DOI: <https://doi.org/10.1086/261763>.
12. Stiglitz J., Sen A., Fitoussi J.-P. Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress. - Paris: CMEPSP, 2009. - 292 p.
13. Sen A.K. Commodities and Capabilities. - Amsterdam: North-Holland, 1985. - 130 p.
14. Alkire S., Foster J. Counting and Multidimensional Poverty Measurement // Journal of Public Economics. - 2011. - Vol. 95, No. 7-8. - Pp. 476-487. - DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jpubeco.2010.11.006>.
15. OECD/JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. - Paris: OECD Publishing, 2008. - 162 p. - DOI: <https://doi.org/10.1787/9789264043466-en>.
16. Saaty T.L. The Analytic Hierarchy Process: Planning, Priority Setting, Resource Allocation. - New York: McGraw-Hill, 1980. - 287 p.
17. Mishan E.J., Quah E. Cost-Benefit Analysis (Fifth Edition). - London: Routledge, 2007. - 336 p.
18. Xakimov Z.A., Eshov M.P., Boltayeva Z., Tursunov B. Mamlakatda ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarining doimiy monitoring tizimi: amaliy loyiha (AL-9124104362). - Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi PQ-4699-son «Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida»gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4800657>
20. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 29-noyabr KQ-6-V-son «Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishini nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7258833>

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
